

KIRITMA VA QO‘SHMA SO‘ZLAR HAQIDA AYRIM
MULOHAZALAR

B.Tuxtayeva, NDPI.

Annotatsiya: kiritmali sodda gaplar ergash gapli qo‘shma gaplar bilan qorishtirilishi hamda sodda va qo‘shma gap chegarasini aniqlash, ya’ni kiritmali sodda gaplarga bog‘liq bo‘lgan tomonini aniqlashga qaratilgan. Qo‘shma gapning har bir komponenti o‘z doirasida ma’lum bir fikrni ifodalaydigan holatlar misollarda ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: sodda gap komponenti, qo‘shma gap komponenti, gap bo‘lagi, kiritma sodda gap, ergash gapli qo‘shma gap.

Sodda va qo‘shma gaplarning chegarasi masalasi tilshunoslikda, jumladan, o‘zbek tilshunosligida hal qilinishi lozim bo‘lgan muammoli masalalardan biridir. O‘zbek tili sintaksisida sodda va qo‘shma gaplar, ayniqsa, kiritma sodda gaplar bilan ergash gapli qo‘shma gaplar bir-biri bilan aralashtiriladi. Masalan, “Bilaman, siz buni yomon ko‘rasiz” tipidagi gaplarni bir guruh tilshunoslari ergash gapli qo‘shma gap desalar, ba’zilari kirish gapli qo‘shma gap, ayrimlari kiritmali sodda gap deyishadi. Bundan ko‘rinadiki, kiritmali sodda gaplar ergash gapli qo‘shma gaplar bilan qorishtiriladi. Shuning uchun ham biz sodda va qo‘shma gap chegarasini aniqlashning bir tomonini, ya’ni kiritmali sodda gaplarga bog‘liq bo‘lgan tomonini yoritishga harakat qildik.

O‘zbek tili materialini o‘rganish, to‘plangan misollarni tahlil qilish bu ikki kategoriyaning, ya’ni kiritmali sodda gaplar to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarning farqini aniqlashga yordam beradi. Bu farq qiyidagicha:

1.Qo‘shma gap tarkibidagi ergash gap bosh gapning mazmunini to‘ldiradi yoki bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to‘ldiruvchilarni izohlab, ularning ekvivalenti bo‘lib keladi. Qo‘shma gapning har bir komponenti o‘z doirasida ma’lum bir fikrni ifodalaydi. Ayrim-ayrim olganda o‘z fikrlarni tugallangan deb bo‘lmaydi, albatta. Komponentlardan anglashilgan fikrlar birlashib, qo‘shma gap

doirasida yaxlit bir nisbiy tugallangan fikrni bildiradi: *ko‘ryapsizmi ular ishlayaptimi yoki yo‘qmi?*

Kiritmali sodda gaplar tuzilishi jihatdan qo‘shma gapga o‘xshaydi, lekin mazmuni Grammatik xususiyatlari ularni qo‘shma gap deyishga yo‘l qo‘ymaydi. Aniqki, kiritmalar so‘zlovchi yoki yozuvchining voqelikka nisbatan munosabatini bildiradi, modallikni ifoda etadi. Masalan: *ko‘ryapsizmi, bular kosmosni zabit etganlar sanaladi!*

Bu gapni yuqoridagi gap bilan bir xil tipdagi gap deb bo‘lmaydi, albatta. Ko‘ryapsizmi, bular kosmosni zabit etganlar sanaladi! gapi sodda . “Ko‘ryapsizmi” komponentini, kesimlik ko‘rsatkichlari bo‘lsa ham bosh gap deya olmaymiz. Chunki uning mazmuni keying component tomonidan to‘ldirilmaydi, u o‘zidan keying komponentni (bular kosmosni zabit etganlar sanaladi) ergashtirmaydi. Gapning “Ko‘ryapsizmi” komponenti subyektning voqelikka nisbatan munosabatini bildirishga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bu gapdan so‘zlovchining tinglovchini diqqatini jalb qilib, ularning kimligini, bundan o‘zining xabardorligini, xursandligini bayon qilish sezilib turibdi.

2.Qo‘shma gapni, ya’ni ergash gapli qo‘shma gapni sodda gapga aylantirish mumkin. Bunda ergash gap o‘z shaklini o‘zgartirib, sodda gapning yoyiq to‘ldiruvchisiga o‘tadi. Qiyoslansa:

1.Hamma biladiki, yoshlar vatanimizning kelajagi.

2.Yoshlar vatanimizning kelajagi ekanligini hamma biladi.

Birinchi gap ikki komponentli qo‘shma gap bo‘lsa, ikkinchi gap to‘ldiruvchili yoyiq sodda gap. Kiritmali gaplarni sodda gapga aylantirib bo‘lmaydi, chunki ularning o‘zi soda gap. *Ko‘ryapsizmi, bular kosmosni zabit etganlar sanaladi.* Bu gapning “*Bularning kosmosni zabit etganlar sanalishini ko‘ryapsizmi?*” deb shaklini o‘zgartirish mumkin. Bunda uslub buziladi, “sanalishini” ko‘rish mumkin emas, so‘zlovchining maqsadi ham sanalishni ko‘rsatish emas.

3.Qo'shma komponentlari ikki sostavli, ba'zan bir sostavli bo'lishi: *Kenja botir fahmlab bildiki, bu joy ularning to'planadigan makoni ekan*(Ertakdan) *Qayoqqa qarasang qarag'ayzor, qalin o'rmon, rus yeri go'zal.*(Oybek)

Kiritma ba'zan qo'shma gap komponentiga teng kelsa ham, u harakat subyektini ifoda etmaydi: *Ko'rdingizmi, biz qanday zo'r ekanmiz.*

4.Qo'shma gapning har bir komponenti ma'lum fikrni bildiradi, tarkibidagi so'zlar o'zaro aloqaga kiradi: *Qurban ota shundan bildiki, eshak Mahsumga juda yoqib qoldi* (A.Qahhor).

Kiritma fikr bildirmaydi, lekin ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayib keladi. Sostavli kiritma tarkibidagi so'zlar o'zaro aloqaga kiradi: *Menga qarang, ovsin, to'yni qachon boshlaymiz* (A.Qahhor).

5. Qo'shma gapdan kiritmali sodda gaplarni farqlashda gapning mazmun turlari ham xizmat qiladi, qo'shma gap tarkibidagi ergash gaplar ko'pincha so'roq gap shaklida bo'ladi. bunday qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirish mumkin: *Ko'ryapsizmi, ular ishlayaptimi yoki yo'qmi? Bilmaymanki, uning muddaosi nima?*

Kiritmali sodda gap darak, undov gap shaklida keladi. Ba'zan so'roq gap shaklida kelishi mumkin. Bunday gaplar sodda gap sanaladi:

Ko'ryapsizmi, bular kosmosni zabit etganlar sanaladi.

Aytmoqchi, mehmonlaringiz qachon kelishadigan bo'lishdi?

6.Qo'shma gapdan kiritmali sodda gaplarni farqlashda so'zning leksik ma'nosi ham muhim rol o'ynaydi. Qo'shma gapning kiritma bilan aralashtirilgan komponentini ifodalovchi so'z o'z ma'nosida qo'llansa, bunday gaplar qo'shma gap sanaladi. u o'z leksik ma'nosidan butunlay yoki qisman uzoqlashgan bo'lsa, unday gaplar sodda gap sanaladi. qorishtirilgan component esa kiritma hisoblanadi.

Ko'ryapsanmi, kim kelayotir,

Ko'ryapsanmi u qanday maroqli gapirayotir.

Bilmadim, ular qachon kelishadi.

... Azroil senga qolganda, bilmadim, nega g'ofil qoldi.

Keltirilgan misollarning birinchisida “ko‘ryapsanmi” bo‘lagi ko‘rish ma’nosini ifoda etadi, demak, bu gapda “ko‘ryapsanmi” o‘z leksik ma’nosida qo‘llangan.

Ikkinchi misoldagi “ko‘ryapsanmi” bo‘lagi haqiqiy ko‘rish ma’nosini ifoda etmaydi. Eshiyapsanmi, payqayapsanmi, sezyapsanmi ma’nolarini ifoda etadi. So‘zlovchi esa shu so‘z orqali tinglovchining diqqatini o‘sha voqeaga tortadi.

Uchinchi misoldagi “bilmadim” bo‘lagi to‘g‘ri ma’noda qo‘llangan.

To‘rtinchi misoldagi “bilmadim” bo‘lagi o‘z haqiqiy ma’nosida qo‘llanmagan. U ajablanish, hayron bo‘lish kabi ma’nolarni ifoda etadi.

Tekshirish shuni ko‘rsatadiki, so‘zlar, ko‘pincha, so‘roq gaplarda o‘z ma’nosida qo‘llanadi, darak, undov gaplarda esa leksik ma’nosidan butunlay yoki qisman uzoqlashadi: 1.Qara, hamma qaytib keldimi? 2.Qara, hamma qaytib keldi. 3.Qara, hamma qaytib keldi!

Birinchi gap so‘roq gap bo‘lib, undagi “qara” to‘g‘ri ma’noda ishlatilgan. Ikkinchi, uchinchi gaplardagi “qora” bo‘lagi tinglovchining diqqatini tortish, fikrni tasdiqlash ma’nosini ifoda etadi. Shuning uchun bu xil gaplar suhbatdosh o‘sha predmetga, voqe-hodisaga qarab turgan paytida ham qo‘llanaveradi.

7.Qo‘shma gapdan kiritmali sodda gaplarni sinonimlar yordamida ham o‘sha ma’noni anglash mumkin. Qo‘shma gap komponentlarini sinonimlar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Kiritmalarni sinonimlar bilan almashtirish mumkin:

1.Bilmadim, u qachon jo ‘naydi?

2....Azroil senga qolganda, bilmadim, nega g‘ofil qoldi! (Mirmuhsin)

Birinchi gapdagagi “bilmadim” komponentini shu xil sinonimlar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Kiritmalarni sinonimlar bilan almashtirish mumkin.

Ikkinchi gapdagagi “bilmadim” bo‘lagini esa “hayronman”, “tushunmayman”, “ajabo” kabi sinonimlar-kiritmalar bilan almashtirish mumkin.

Ma’lumki, gap fikrni ifoda etadi, bo‘lak esa uning tarkibiy qismlari bo‘lib, ma’noni ifoda etadi. Gap tarkibida “aytaylik”, “olaylik”, “aytmoqchi”, “deyman” kabi shaxs-son ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan fe’llar uchraydi. Bu fe’llar kiritma

vazifasida kelib, so‘zlovchining voqelikka nisbatan turlicha munosabatini bildiradi. Demak, bularni bo‘lak, ya’ni kiritma deyish to‘g‘ridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmonov G‘.A. o‘zbek tili grammatikasi.- Toshkent: “O‘qituvchi”, 1996.
2. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixo‘jayeva S. o‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent. “Fan”, 1992.
3. Nurmonov A.lingvistik ta’limotning yangi bosqichi //O‘zbek tili va adabiyoti, 2008. № 6.
4. Sayfullayeva A.R. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном языке.- Tashkent: “Fan”, 1984.
5. Туробов, А. (2020). Оғ „заки ва ёзма нутқ хусусида. Иностранный филология: язык, литература, образование, (3 (76)), 15-16.
6. Туробов, А. (2021). ҚЎШМА СЎЗ-МИКРОСИНТАГМАТИК МУНОСАБАТЛАР ОБЪЕКТИ СИФАТИДА. FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 6(6).
7. Shirinboyevna, M. D. (2020). Basic Features Of Advertising Language. JournalNX, 6(10), 325-330.
8. Rasulovna, S. D. (2021, December). Qisqalik-samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili. In Conferences.

